

## QARSHI SHAHRI IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA

**To‘rayeva Nozliya Hasan qizi**

Qarshi davlat universiteti 2-kurs magistranti

[nozliyaturayeva@gmail.com](mailto:nozliyaturayeva@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ikkinchı jahon urushi 1939-yıldan 1945-yilgacha davom etdi. Urushda 60 dan ortiq davlat qatnashdi va 65-67 mln kishi halok bo‘ldi. Halok bo‘lganlarning yarmi tinch aholi edi. Urushni asosiy bosqinchi davlatlar – fashistlar Germaniyasi va Italiyasi hamda Yaponiya boshladi. Ularga Angliya, Fransiya, SSSR va AQSHdan iborat ikkinchi guruh qarama-qarshi turardi. SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalar, shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari ham urush girdobiga tortildi. Ushbu maqolada O‘zbekistonning markaziy shaharlardan biri bo‘lgan Qarshi shahrining II jahon urushi davridagi hayoti haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** II jahon urushi, O‘zbekiston SSR, Qarshi, shahar hayoti, front orti.

### THE CITY OF KARSHI DURING THE SECOND WORLD WAR

#### ABSTRACT

*World War II lasted from 1939 to 1945. More than 60 countries participated in the war and 65-67 million people died. Half of the dead were civilians. The main aggressor countries – Nazi Germany and Italy and Japan started the war. They were opposed by the second group consisting of England, France, the USSR and the USA. All the republics that were part of the USSR, including the peoples of Uzbekistan, joined the war. This article provides information about the life of Karshi, one of the central cities of Uzbekistan, during the Second World War.*

**Keywords:** world war II, Uzbekistan SSR, Karshi, life of the city, behind the front.

#### KIRISH

Ikkinchı jahon urushi Qashqadaryo vohasi, jumladan, Qarshi shahri taraqqiyotining bir maromdagi rivojlanishiga o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmadı. Butun mamlakatda bo‘lgani singari bu yerda ham xalq xo‘jaligi harbiy izga solindi va u urush manfaatlariga bo‘ysundirildi.

Qarshi shahar va Qarshi tumani mehnatkashlarining 1941-yil iyun oyi oxirida Qarshi shahar muzikali va komediya teatri binosida ko‘p ming kishilik mitingi bo‘lib, nemis fashist bosqinchilarining surbetlarcha xiyonatkorona hujumi munosabati bilan

chuqur noroziliklarni yakdillik bilan izhor qildilar. “Biz ishontirib aytamizki, - deb yozgan edilar miting qatnashchilari, - har qanday topshiriqni sharaf bilan bajaramiz, butun kuchimizni, imkoniyatlarimizni, butun ixtiyorimizni dushmanni tezroq tor-mor etish uchun sarflaymiz”. Miting qatnashchilari urush boshlanishi munosabati bilan qo’shimcha majburiyatlar olib so‘ngra harakatdagi armiyaga jo‘natishlarini talab qildilar va o‘zlarini safarbar etilgan deb hisobladilar.

1941-yilning 25-iyulidan boshlab harbiy xizmatga chaqirilishi lozim bo‘lgan kishilarni harbiy ishga tayyorlash ishi avj oldirildi. Harbiy o‘quv punktlari tashkil etildi. Ularni rahbarlar bilan to‘ldirishga kirishildi. Harbiy o‘qishga tortilishi lozim bo‘lgan kishilar ro‘yxatdan o‘tkazildi. O‘quv punktlari jihozlandi, o‘quv qo‘llanmalari bilan yordamlashildi. Hamma joyda bo‘lganidek Qarshi tumanida ham har kuni, hatto dam olish kunlarida ham ikki yarim soatdan harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazib turildi. O‘rta maktablarning yuqori sinflarida o‘quvchilarga harbiy, jismoniy tarbiya va sanitariya ta’limi berish uchun ajratilgan soatlar miqdori oshirildi.

1942-yilning fevral oyida hamma viloyat va tumanlarda bo‘lganidek Qarshida ham pulemyotchi, minomyotchi, tankchi, qiruvchi, avtomatchilar tayyorlash uchun umumiy harbiy ta’lim sistemasida yoshlarni maxsus bo‘limlari tuzildi. Bu bo‘limlarga asosan 110 soatlik o‘quv programmasini yaxshi o‘zlashtirgan kishilar tanlab olindi. O‘quv mashqlari jang sharoitlariga moslab olib borildi. Ular uchun ishdan ajralmagan holda haftada kamida 6 soat vaqt ajratildi. Tayyorlangan kadrlar harakatdagi armiyaga jo‘natildi. Qashqadaryo viloyati ijroiya komiteti harbiy komissarlik yordamida 1943-yilning avgust oyida umumiy majburiy harbiy ta’lim berish haqidagi masalani muhokama qilib, bu masalada katta kamchiliklarga qaramay butun urush yillari davomida olti marta umumiy harbiy ta’lim mashqlari o‘tkazildi. Ularda harbiy xizmat yoshidagi kishilar tayyorgarlikdan o‘tkazildi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

1941-yilning sentabr oyida Respublika xotin-qizlarining ko‘p ming kishilik mitingi bo‘lib o‘tdi. Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan bu mitingda xalqning sevimli san’atkori Sora Eshonto‘rayeva fashizmga qarshi xalqlar nafratini ifodalab quyidagi fikrni bayon etgan edi: - “Mamlakatimizda xalqlar milliy madaniyati tobora jilolanmoqda va yashnamoqda...” Xalq teatrni, adabiyotni, suratchilikni, muzikani nihoyat darajada sevadi, fashistlar esa bizning xalqimizga o‘ynab va kuylab berish huquqimizdan mahrum qilmoqchi. Shuning uchun butun kuchimizni fashistlarga qarshi qaratamiz!”. Haqiqatdan ham xalq san’atkori ta’kidlaganidek, san’atkorlarning urush yillarida mehnatkashlar oldidagi xizmatlari ularning qo‘ygan asarlari, ijro etgan kuy va qo‘sishlari xalqni mehnatga, dushmanga qarshi kurashga ruhlantirib turdi.

San’atkorlar mehnatkashlar hayoti va turmushi bilan doimiy bog‘lanib, ular manfaati, fikr-tuyg‘usi, umid va orzularini kuyladilar. Ular urush boshlangandan keyin

front va front orqasida madaniy xizmat qilish maqsadida konsert programmalar tayyorladilar. Sanoat korxonalari, dehqon xo‘jaliklari, madaniy muassasalar uchun otalik ishlarini yo‘lga qo‘ydilar. Qishloq xo‘jalik xodimlari, ishchi va xizmatchilar, gospitallarda, chaqiriq punktlarida, rezerv kuchlar joylashgan maydonlarda harakatdagi armiyaga xizmat qilish uchun konsert brigadalari tuzdilar. Ular kishini hayajonga soluvchi sahna asarlari tayyorlab konsert programmalar asosida viloyat va tumanlarda, frontlarda bo‘ldilar.

1941-1945-yillarda Qarshidagi teatr xodimlari badiiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Teatr xodimlari urush davrida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy, tarixiy asarlarni sahnalashtirdilar. Qashqadaryo viloyati mustaqil bo‘lgandan keyin mehnatkashlarni madaniy jihatdan tarbiyalashni kuchaytirish maqsadida Davlat musiqa va komediya tetra tashkil etildi. Teatrga ishslash uchun xalq tomonidan tan olingan ko‘plab talentlar tanlab olindi.

1943-yilning iyul oyida Qarshidagi viloyat musiqali va komediyali drama teatri uchinchi kategoriyaga, 1944-yilda esa uchinchi toifadan ikkinchi toifaga o‘tkazildi va uning ishlovchilari 163 kishi qilib belgilandi. Kadrlarning 67 tasi badiiy ijod qiladigan kadrlar edi. Eng muhimi teatrning moddiy bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari ko‘rildi. Uning smeta xarajatlari 770 ming so‘m, daromadlari 400 ming so‘m qilib belgilandi. Muhimi mahalliy budjet hisobidan 37 ming so‘m dotatsiya beriladigan bo‘ldi. Bu ko‘rilgan chora-tadbirlar teatr jamoasining mas’uliyatini yanada oshirdi. Teatr yosh bo‘lishiga va urush davri qiyinchiliklariga qaramay 1943-yilda o‘z san’atlarini namoyish etish bilan birga 5 ta yirik asarni muvaffaqiyatli sahnalashtirib sanoat korxonalarida, dehqon xo‘jaliklarida namoyish etdilar. Ular bu erishilgan yutuqlar bilan chegaralanib qolmadilar. San’at ustalari front oyliklarida faol qatnashdilar. Teatr kollektivi ikki gruppaga bo‘linib konsert programmasi tuzdilar. Birinchi konsert brigadasi 15 kishidan iborat bo‘lib, unga Mukarrama Nosirova, M.Ahmadjonova, Sattorov kabi yoshlar kirgan bo‘lsa, ikkinchi konsert brigadasi 14 kishidan iborat edi, unga Ikroma Boltayeva, Farog‘at Rahmatova kabi ko‘zga ko‘ringan talentlar kirgan edi. Birinchi grupper konsert brigadasi a’zolari Beshkent tumani dehqonlariga, ikkinchi grupper brigade Koson tumani mehnatkashlariga xizmat qildilar. Konsert brigadalari navbat bilan G‘uzor, Qamashi, Dehqonobod, Yakkabog‘ va boshqa tuman mehnatkashlariga konsert qo‘yib berdilar. Teatrning boshqa qolgan san’atkorlari Qarshi tumanidagi Xudoyzot, Obdida, Kat, shuningdek, shahar kengashidagi xo‘jaliklarda madaniy xizmat qildilar, dehqonlar bilan birga ishladilar.

Urush yillarida G‘arbiy tumanlardan ko‘plab aholini Qarshiga keltirilishi, joylashtirilishi natijasida rus tilida so‘zlashuvchi aholi soni ko‘paydi. Rus tilida so‘zlashuvchi aholining talablari hisobga olinib, san’at ishlari Komiteti 1945-yilda Qarshi shahrida rus drama teatri tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Ochilishi

kerak bo‘lgan yangi teatrning badiiy rahbari va direktori qilib A.K.Barovskiy tayinlandi. Lekin G‘arbiy tumanlar dushmanidan ozod qilingandan keyin ko‘chirib keltirilgan aholini qayta ko‘chirilishi, birinchi navbatda yetarli mablag‘ va kadrlar bo‘lmasligi tufayli teatr tashkil etilmadi.

Tarix oynasi hisoblangan muzeylar 1941-1945-urush yillarida aholi o‘rtasida ko‘zga ko‘rinarli ommaviy-siyosiy va madaniy ishlar olib bordi. Muzeylarning bir qismi vaqtincha o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Muzey binolari boshqa maqsadlarda foydalanildi. Mutaxassislarning bir qismi harakatdagi armiyaga ketgan bo‘lsa, bir qismi boshqa ishlar uchun jalg qilindi. Urush arafasida respublika hududida 17 ta muzey ishlagan bo‘lsa, urush boshlangandan keyin 6 ta muzey tarqatib yuborildi yoki bir-biriga qo‘shilib ketdi. Faoliyat ko‘rsatgan 11 muzey ham og‘ir sharoitda ishladi. Mablag‘, ishchi kuchi, yetuk kadrlar yetishmas edi.

Muzeylar va undagi xodimlar soni keskin kamaygan, moddiy bazasi qisqargan bo‘lsada, lekin o‘z faoliyatlarini susaytirmadi, aksincha uning ish hajmi kengayib, katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular davlatning katta mablag‘ini sarflamasdan, asosan jamoatchilik asosida mehnat qildilar. Jamoatchilik asosida muzeylarda 1941-1945-yillar bo‘limi tashkil etildi. Bunday bo‘lim Qarshidagi o‘lkani o‘rganish muzeyida ham tashkil etilgan edi. Qashqadaryo viloyati mustaqil bo‘lgandan keyin uning doirasi kengaydi. U viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. Sharif Hafizov rahbarligidagi muzey boshqa muzeylar bilan uzviy aloqada ishlab uning eksponatlari boyib bordi.

Urush yillarida doimiy ravishda ko‘rgazma tashkil etib turildi. Masalan, 1943-yilda “Qashqadaryoliklar jang maydonlarida”, “Yoshlar hal qiluvchi kuch”, “Viloyat mehnatkashlari mamlakat mudofaasini mustahkamlash uchun kurashda”, 1944-yilda “Front bilan front orqasining birligi”, 1945-yilning birinchi may kuni ochilgan “1941-1945-yillarda Qashqadaryo viloyati” mavzulariga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar tashkil etildi. Muzey xodimlari tumanlarga chiqib urush davrida xalqimizning erishgan yutuqlarini kutubxonachilar bilan hamkorlikda ko‘rgazmalar uyuشتirdilar. Tumandagi yangi xo‘jaliklarga chiqib tashviqot va targ‘ibot ishlari olib bordilar. Shu bilan birga g‘alla o‘rdilar, paxta terdilar. Urush yillarida respublikada tuzilgan rassomlar brigadasi Qarshida bo‘lib, paxtakor, g‘allakor, chorvadorlar orasida qator suhabatlar o‘tkazdilar. Bolalar uylarida, gospitallarda go‘daklar haqida, yaradorlar sharoiti haqida rasm chizdilar. Bu rasmlarni muzeylarda, klublarda, qizil choyxonalarda namoyish qildilar. Bu ishlari bilan muzey eksponatlarini boyitdilar.

## XULOSA

Ikkinchi jahon urushi tarixda eng dahshatli, eng ko‘p talafot va katta vayronagarchilik keltirgan urush sifatida iz qoldirdi. Urushda O‘zbekistondan bir yarim milliondan ortiq jangchi qatnashdi. Qarshi va uning atroflarida tug‘ilib o‘sgan

minglab yigitlar ikkinchi jahon urushi janggohlarida fashizmga qarshi janglarda Moskva atrofi va Stalingradda, Ukraina va Belorussiyada, Sharqiy Yevropa davlatlari va Germaniyada, shuningdek, Uzoq Sharqda bevosita qatnashdi. Umuman, Qashqadaryo viloyatidan 98069 kishi urushda ishtirok etdi. Ularning ko‘pchiligi fashizmga qarshi janglarda halok bo‘ldi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmonov Q., Sodiqov.M. O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Toshkent, 2014.
2. Turdiyev S. Jasorat unutilmaydi: 1941-1945-urush yillarida Qarshiliklar. Qarshi, 1997.
3. Nasriddinov Q., Qutayev A. Qashqadaryo frontga qarshi.
4. Lafasov M. Jahon tarixi (1918-2012). Toshkent, 2016.
5. Ravshanov P. Qarshi tarixi. – T.: “Yangi asr avlod”, 2006.
6. Rtveladze E. va boshqalar. Qarshi. – T.: “Ma’naviyat”, 2006.